

KORRUPSIYA — TARAQQIYOT KUSHANDASI

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Peda-
gogika universiteti Xorijiy tillar fakulteti
102-A guruh talabasi*
Komilova Shahzoda Bobir qizi

*Korrupsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish, shuningdek, huquqbuzar-
likning oldini olish masalalarini samarali yechish ustuvor vazifalarimizdan biri bo' - lib
qoladi.*

(Shavkat Mirziyoyev)

Annotatsiya. *Ushbu maqolada har qanday davrning dolzarbb muammosi bo'lmish
korrupsiya, ya'nikim jamiyatning yemirilishiga sababchi bo'lmish illat to'g'risida fikr
yuritamiz. Bu illatning nechog'li jamiyat poydevorini yemirayotgani haqida mulohazalar
yuritamiz.*

Kalit so'zlar: *korrupsiya, qonun ustuvorligi, konstitutsiya, jamiyat poydevori,
korrupsiyaga qarshi harakatlar .*

KIRISH

Atrofga bir nazar tashlang: hayot – qanchalar go'zal. Toki tirik ekansiz, yuragingiz urib tursa, ko'zlaringiz ko'rib tursa, yashash sizga shirindan shirin tuyulaveradi. Chindan ham, tiriklik hech qachon qaytib berilmaydigan bir tortiqdir. Buni o'ylaganingiz sari, mohiyatini anglay boshlaganingiz sayin hayot sizni ohanrabodek yanada kuchliroq o'ziga mahliyo qilaveradi.

Quyosh taqdirning bugungi o'yinidan zerikib, o'z chodiriga kirish uchun shaylanmoqda. U musavvirlik mahoratini ishga solib, ufq osmoniga tortilgan hayot pardasini qip-qizil rangga bo'yadi. Asta-sekinlik bilan olamni sokinlik qamrab ola boshladi. Mehnatkashlar o'z kulbasiga yetguncha dunyo hokimligini tun o'z qo'liga oldi. Birozdan so'ng ko'k sahnida xira chiroqlarini ko'targancha birin-ketin yulduzlar ham paydo bo'ldi.

Kishini o'yg'a toldiradigan sirli tun. Hamma-hammani, dunyo ahlini o'yg'a solayotgan kechalar. Butun olam tashvishda. Bu o'ylarga, g'am-u tashvishlarga kim yo nima sababchi? Bu xayollardan qanday qutilish mumkin?

Darvoqe, bugun bizni ana shunday savollar girdobida qoldirgan bu ko'rinmas "quzg'un", ya'ni korrupsiya qanchadan qancha insonlarning, mansabdor, nafsiga qul kimsalarning sha'niga dog' tushirish bilan birgalikda ularning ham amalidan, ham oila a'zolarining mehridan, shuningdek, vijdondek sof tuyg'ulardan ham mosivo qilmoqda. Ayting, nega kerak o'zi bizga? Bu boylig-u hasham !!! Shu pullar yo manfaat yuzasidan bo'layotgan kelishuvlar kimga bir naf keltirdi, qaysi insonning mavqeyini jamiyatda

yuqoriga olib chiqdi? Aksincha, oliy mansab egalarining obro'yidan mahrum etmoqda, ularni panjara ortida turishlariga “yordam bermoqda”. Qadimgi yunon faylasufi Arestotel aytganki, “Har qanday davlat tizimida — qonunlar va boshqa farmoyishlar orqali ishni shunday tashkil qilish kerakki, unda mansabdor shaxslarni noqonuniy yo'l bilan boyishga yo'l qo'ymaslik lozim”. Ha, bu so'zlar zamirida qanchalar haqiqat mujassam. Korrupsiyaga nafaqat amaldor insonlarning mansabi, balki oilalardagi muhit, ota-onaning farzandiga berayotgan tarbiyasi ham sabab bo'lmoqda. Jamiyatda bu illatning naqadar chuqur ildiz otishi uning fuqarolariga, a'yonlariga hamda davlat tashkilot a'zolariga bog'liq, avvalambor. Har kim Alloh bergan rizqqa qanoat qilib, halol mehnat bilan yashasa, korrupsiya singari illatlar davlatning barbod bo'lishiga, iqtisodiyotining pasayishiga, ma'naviyatining susayishiga olib kelmaydi. Ming afsuslar bo'lsinki, bugungi globallashgan, har qanday texnologiya rivojlangan davrda inson ongi ham, zamon taraqqiyoti ham tez su'ratlarda o'smoqda. Ammo buning yaxshi tomoni shundagi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ya'ni inson omili kamaygani sari korrupsiyaga iloji boricha yo'l qo'ymaslikka harakat qilinmoqda.

КОРРУПЦИЯ МЕШАЕТ РАЗВИТИВ

Комилова Шахзода студентка

*Ташкентского государственного педагогического
Университета имени Низами*

Коррупция и организованная преступность борются против, а также правонарушителя- вопросы эффективной профилактики решение одной из наших приоритетных задач останется.

(Шавкат Мирзиёев)

Аннотация. *В этой статье мы подумаем о коррупции, которая является актуальной проблемой любой эпохи, то есть пороком, вызывающим разложение общества. Мы думаем о том, как эта болезнь размывает основы общества.*

Ключевые слова: *коррупция, верховенство права, конституция, основы общества, антикоррупционные действия.*

Оглянитесь вокруг: жизнь так прекрасна. Пока ты жив, пока твое сердце бьется, а глаза видят, жизнь будет казаться тебе слаще, ведь жизнь — это бремя, которое никогда не вернуть. Чем больше вы думаете о ней, чем больше вы начинаете понимать ее суть, тем сильнее жизнь будет притягивать вас, как железный прут.

Солнышко наскучило сегодняшней игрой судьбы и готовится войти в свой шатер. Он применил свои живописные способности и нарисовал простершуюся по небу завесу жизни в малиновый цвет. Постепенно тишина стала покрывать мир, прежде

чем рабочие добрались до своих хижин, миром овладела ночь. Через некоторое время на синей сцене появились звезды, одна за другой зажигая свои тусклые огоньки.

Таинственная ночь, которая наполняет человека мыслями. Ночи, которые заставляют всех, людей мира думать. Весь мир волнуется. Кто или что является причиной этих мыслей и тревог? Как избавиться от этих иллюзий?

Между прочим, этот невидимый «ворон», оставивший нас сегодня в вихре таких вопросов, т.е. коррупция, запятнал честь многих людей, чиновников, рабов своего эго, вместе с их поступками и любовью членов их семей. , а также чистые эмоции вроде совести. Скажи, зачем он нам нужен? Это богатство и роскошь!!! Кому выгодны эти деньги или соглашения, которые заключаются на основе интереса, кто поднял положение человека в обществе? Наоборот, лишает авторитета обладателей высоких должностей, «помогает» им оставаться за решеткой. Древнегреческий философ Аристотель говорил, что «Во всяком государственном строе посредством законов и других порядков необходимо организовать работу таким образом, чтобы не допустить, чтобы чиновники обогащались незаконным путем». Да, в этих словах есть большая доля правды. Коррупция вызвана не только карьерой чиновников, но и обстановкой в семьях и воспитанием, которое родители дают своим детям. Насколько глубоко это зло укоренилось в обществе, зависит, прежде всего, от его граждан, членов и членов государственной организации. Если каждый будет довольствоваться пропитанием, данным Богом, и жить честным трудом, то такие пороки, как коррупция, не вызовут развала государства, упадка его экономики и ослабления его духовности. Жаль, что в сегодняшнюю глобализированную и технологически продвинутую эпоху и человеческий разум, и развитие времени растут стремительными темпами. Но плюс в том, что используются современные технологии, то есть по мере снижения человеческого фактора максимально избегается коррупция.

CORRUPTION IS AN OBSTACLE TO DEVELOPMENT

Komilova Shahzoda student of
*Tashkent state Pedagogical
University named after Nizami*

*Corruption and organized crime
fight against, as well as the offender-
effective prevention issues
solving is one of our priority tasks
will remain.*

(Shavkat Mirziyoyev)

Abstract. *In this article, we will think about corruption, which is an urgent problem of any era, that is, a vice that causes the decay of society. We are thinking about how this disease is eroding the foundations of society.*

Key words: *corruption, rule of law, constitution, foundation of society, anti-corruption actions.*

Look around: life is so beautiful. As long as you are alive, as long as your heart is beating, and your eyes are seeing, living will seem sweeter to you. Indeed, life is a burden that can never be returned. The more you think about it, the more you begin to understand its essence, the more strongly life will attract you like an iron rod.

The sun is getting bored with today's game of fate and is getting ready to enter his tent. He used his painting skills and painted the curtain of life stretched across the sky in crimson color. Gradually, silence began to cover the world. Before the workers reached their huts, the night took over the world. After a while, stars appeared on the blue stage, raising their dim lights one after another.

A mysterious night that fills a person with thoughts. Nights that make everyone, people of the world think. The whole world is worried. Who or what is the cause of these thoughts and worries? How to get rid of these illusions? By the way, this invisible "raven" that has left us in a whirlwind of such questions today, i.e. corruption, tarnishes the honor of many people, officials, slaves to their egos, along with their actions and the love of their family members. , as well as pure emotions like conscience. Tell me, why do we need him? This is wealth and luxury!!! Who has benefited from this money or the agreements that are being made on the basis of interest, which person has raised the position of the person in the society? On the contrary, it is depriving the authority of the holders of high positions, "helping" them to stay behind bars. The ancient Greek philosopher Aristotle said that "In any state system, through laws and other orders, it is necessary to organize work in such a way that officials should not be allowed to get rich illegally." Yes, there is a lot of truth

behind these words. Corruption is caused not only by the careers of officials, but also by the environment in families and the education parents give to their children. How deeply rooted this evil is in the society depends on its citizens, members and members of the state organization, first of all. If everyone is satisfied with the sustenance given by God and lives with honest work, vices like corruption will not cause the collapse of the state, the decline of its economy, and the weakening of its spirituality. It is a pity that in today's globalized and technologically advanced era, both the human mind and the development of time are growing at a rapid pace. But the good thing about it is the use of modern technologies, that is, as the human factor decreases, corruption is being avoided as much as possible.

Darhaqiqat, korrupsiya kecha yo bugun paydo bo'lib, jamiyatga xavf solayotgani yo'q, albatta. Negaki bu illat necha asrlar avval ham bo'lgan, bundan keyin ham davom etadi. Fransuz mutafakkiri Sharl Monteske esa bu borada "Asrlar tajribasidan ma'lumki, har qanday hokimiyat vakolatiga ega bo'lgan shaxs uni suiiste'mol qilishga moyil bo'ladi va u ma'lum bir maqsadga erishmagunicha shu yo'nalishda yuradi", -degan hayotiy fikrlarni yozib qoldirgan.

Korrupsiya tushunchasi insonning nafsi bilab bog'liq, albatta. Nafs — shundayin yomon narsaki, odamzodni har qanday holga solishi, oxiriga yetish mushkul manzilga chorlashi mumkin. O'zbek tasavvuf adabiyoti shoiri Mashrab shunday yozadi:

Soldim tun-u kun nafs itim birla urushni,
Tanho qilichi birla urub hay-haylab o'ttum.

Bobomiz Mashrab yashagan davr, zamon, makon o'zgargan. Ammo ruhiyat, nafs tushunchalari masofa, fursat tanlamaydi. Bugungi kunda ham ba'zan yuz berayotgan korrupsiya, jinoyatchilik, ichkilikbozlik kabi illatlar ham shoir qoralagan "shum" nafs sabab yuzaga kelmoqda. Bu kabi noxush va ko'ngilsiz holatlar oldini olish maqsadida dunyo bo'yicha turli amallar, chora- tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan tadqiqotlarda MDH davlatlari orasida Rossiya, Qozog'iston, Gruziya, Ozarbayjon, Ukraina va Moldoviya davlatlarida korrupsiya darajasi yuqori ekanligi ko'rsatiladi. Jumladan, bu davlatlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurash, uni oldini olishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Misol uchun, Ukrainada "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonun mavjud bo'lib, davlat boshlig'i mazkur qonun normalarini hayotga joriy etilishi uchun jiddiy ahamiyat beradi. Ukraina Prezidenti 1997- yil 10-apreldagi 319-sonli farmoni bilan korrupsiyaga qarshi kurash milliy dasturi tasdiqlangan. Ukrainaning "Korrupsiyaga qarshi kurash to'g'risida"gi Qonuni 9-moddasida mansabdor shaxslarning daromadlari, shuningdek, qimmatli qog'ozlari, ko'chmas mulk va boshqa qimmatbaho buyumlari, bankdagi omonatlari to'g'risidagi rasmiy nashrlarda ma'lumotlar berib borilishi belgilangan.

Korrupsiyaga qarshi kurash siyosatini tatbiq etish, korrupsiya darajasini pasaytirish hamda fuqarolar, jamiyat va davlat huquqlari, shuningdek, qonuniy manfaatlarining korrupsiya bilan bog'liq tahdidlardan himoyalaniшни ta'minlashdan iborat.

Bu siyosat davlatning korrupsiyaga qarshi qaratilgan , qarorlari, dasturlarida o'z ifodasini topadi. Korrupsiyaga qarshi kurash siyosati bu davlat korrupsiyaning oldini olish, u paydo bo'lganda uni tugatish va cheklash borasidagi sa'y- harakatlari va aniq chora-tadbirlar majmuyidir. Masalan, davlatning korrupsiyaga qarshi kurash dasturlari: davlat xizmat sifatini ko'tarish, uning ishlash prinsiplarini qayta ko'rib chiqish, davlat xizmatchilarining mulkiy holatini deklaratsiya qilib borishning samarali va qat'iy mexanizmini o'rnatish; korrupsiyaga qarshi kurashning huquqiy asoslarini mustahkamlash, jinoiy va yashirin pul mablag'lari qonuniylashtirishini oldini olish to'g'risida qonunlarni qabul qilish zaruriyati hisoblanadi. Respublikamizda ham korrupsiyaga qarshi kurash borasida qator chora-tadirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasida iqtisodiy jinoyatchilik va korrupsiyaga qarshi kurash boshqarmasi faoliyat yuritmoqda. 2001-yilda Bosh prokuratura huzurida soliqqa oid jinoyatlarga qarshi kurash Departamenti tashkil etildi, 2002-yilda departament soliq va valutaga oid jinoyatlarga qarshi kurash departamenti etib qayta tashkil etildi. Ha, albatta, qanchadan qancha islohotlar olib borilmoqda, jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashlarning amalga oshirilayotganiga yagona javobimiz bu illatning oldini olish va poralardan, manfaatlardan yiroq bo'lish sanaladi.

Shoir Abdulla Oripov shunday yozadi:

lymonni asrangiz, u doim tanho,
Undadir mujassam inson matlabi.
Avlodlar axtarib yurmasinlar to,
Uni allaqanday Qor odam kabi.

Ha , bu satrlarda majoziy haqiqat yashirin. Inson deb atalmish mo'jiza latif xislatlar bilan bezanmog'i lozim. Bu — mardlik, or-nomus, g'urur, rostgo'ylik, halollik kabi fazilatlardir. Go'zal yurtimiz, muqaddas oilamiz bag'rida ezgu hislar ila hamnafas bo'lib kamol topmoqdamiz. Hayotda shirinso'z, fidoyi, mehribon bo'lib yetishsak, ko'zlarimizda bir-birimizga bo'lgan mehr porlab tursa, kelajakdagi orzularimiz ro'yobi uchun izlanib yashasak, baxtli insonlar bo'lamiz, bizdan umidvor yashayotgan xalqimiz, ota-ona, mahallamiz oldida doimo yuzimiz yorug' bo'ladi. Yurtimiz tinchligi, vatan ravnaqi yo'lida fidoyi yoshlar bo'lib yetishaylik.

Aziz yurtdoshim, hamisha qalbimiz ezgulik nashidalarini ila to'lsin. Alloh bergan shunday tinch, osmoni musaffo zaminda yashar ekanmiz, bir maqsad ila olg'a yorqin kelajak sari qadam tashlaylik. Qo'lni qo'lga berib birlashaylik. Korrupsion holatlar oldini olib, yurtimiz taraqqiyoti, yuqori iqtisodiyoti uchun birdamlikda harakat qilaylik. Zero, biz nafsiga qarshi kurashib yashagan va yuksaklik darajasiga yetishgan Yassaviy , Mashrab kabi mutaassuf shoirlarga munosib voris hamda ular orzu qilgan komil inson bo'lmog'imiz kerak. Hamisha ilk va so'nggi so'zimiz Vatan bo'lsin!!!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T: Ma'naviyat , 2008.
2. "Jamiyat " gazetasi , 2007-yil 28-dekabr 52-son.

3. Axborot asrida ta'lim-tarbiya — T: Akademnashr,2012.— Б . 108
4. БАРТ. Мифологии — М ,2000 – С .56
5. www.matereytin